

Date: 5th May-2026

ELEKTRON TIJORAT SUBYEKTLARINING TIJORAT SIRI: TUSHUNCHASI,
BELGILARI VA SOHALARARO HUQUQIY TARTIBGA SOLISH
XUSUSIYATLARI

Temirxanova Saltanat Xojabay qizi
Biznes huquqi yo‘nalishi magistranti



Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi elektron tijorat subyektlari uchun konfidensial axborotni muhofaza etish masalasini huquqiy amaliyotning ustuvor yo‘nalishiga aylantirmoqda. Algoritmalar, dasturiy ta‘minot kodlari, mijozlar bazasi va narxlash strategiyalari kabi raqamli aktivlarni tijorat siri sifatida belgilash va himoya qilish zaruriyati yanada ahamiyat kasb etmoqda.

Tijorat siri – bu fuqarolik, mehnat, axborot, intellektual mulk va raqobat huquqi tomonidan bir vaqtda tartibga solinadigan ko‘p tarmoqli huquqiy kategoriya. Boshqa intellektual mulk obyektlaridan farqli o‘laroq, u rasmiy ro‘yxatdan o‘tishni talab qilmaydi, ammo maxfiylik rejimi saqlangan taqdirdagina himoya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 98-moddasiga binoan, xizmat yoki tijorat sirini tashkil etuvchi ma‘lumotlar uchinchi shaxslarga noma‘lumligi tufayli haqiqiy yoki potensial tijorat qiymatiga ega bo‘lsa, ularga qonuniy asosda erkin kirish imkoni bo‘lmasa va ularning egasi maxfiylikni ta‘minlash bo‘yicha choralar ko‘rgan bo‘lsa, bunday ma‘lumotlar fuqarolik qonunchiligi bilan himoya qilinadi.¹ O‘zbekiston Respublikasi «Tijorat siri to‘g‘risida»gi Qonunning 3-moddasida esa tijorat siri deganda fan-texnika, ishlab chiqarish, moliya-iqtisodiyot yoki boshqa sohalardagi uchinchi shaxslarga noma‘lumligi sababli tijorat qiymatiga ega bo‘lgan, qonuniy asosda erkin kirishdan mahrum bo‘lgan va egasi tomonidan maxfiylikni ta‘minlash choralari ko‘rilgan axborot tushuniladi.²

Elektron tijorat sohasida tijorat siri – bu konfidensiallik rejimi bo‘lib, u egasiga mavjud yoki mumkin bo‘lgan sharoitlarda daromadni oshirish, asossiz xarajatlardan qochish, bozorda mavqeini saqlab qolish yoki boshqa tijorat foydasini olish imkonini beradi.³ O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1095-moddasi esa qonuniy asosda texnik, tashkiliy yoki tijorat axborotiga ega bo‘lgan shaxsga ushbu ma‘lumotlardan noqonuniy foydalanishdan himoya talabini qo‘yish huquqini beradi.⁴

Xalqaro huquqda konfidensial axborotning uchta klassik belgisi mustahkamlab qo‘yilgan. TRIPS bitimining 39(2)-moddasi quyidagilarni belgilaydi: (a) axborot odatda u bilan shug‘ullanadigan doiralarda umumiy tarqalgan yoki oson erishilmaydigan bo‘lishi kerak; (b) mazkur xususiyatidan kelib chiqqan holda tijorat qiymatiga ega bo‘lishi zarur; (c) egasi tomonidan sharoitga mos ravishda maxfiylikni saqlash bo‘yicha choralar

¹O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi – <https://lex.uz/acts/111181>

²O‘zbekiston Respublikasining «Tijorat siri to‘g‘risida»gi Qonuni. 2014-yil 11-sentabr, O‘RQ-374-son – <https://lex.uz/acts/-2460801>

³Ruzinazarov Sh.N. «Elektron tijorat huquqi» darslik.– Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026 – 424-bet.

⁴O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi – <https://lex.uz/acts/111181>

Date: 5th May-2026



ko‘rilgan bo‘lishi lozim.⁵ 2016-yilgi Yevropa Ittifoqining 2016/943-sonli Direktivasi bu uchta mezonni yanada aniqlashtiradi: maxfiy ma‘lumot «muayyan professional doiralarda umumiy tarqalgan» bo‘lmashligi va aniq tijorat qiymatiga ega bo‘lishi shart.⁶ AQShning 2016-yilgi Defend Trade Secrets Act (DTSA) ham shu uch mezonni qo‘llaydi va tijorat siri tarkibiga algoritmlar, dasturiy ta‘minotlar, formulalar hamda mijozlar ro‘yxatlarini aniq kiritishi bilan farqlanadi.⁷

O‘zbekiston qonunchiligida mustahkamlangan uch mezon xalqaro standartlarga mos keladi. Shu bilan birga, elektron tijorat muhitining o‘ziga xosligidan kelib chiqqan qo‘shimcha texnologik xususiyatni ham inobatga olish zarur: raqamli shaklda saqlanadigan va uzatiladigan axborot kiberhujumlar, ma‘lumotlar analizi va nusxa ko‘chirish xavflariga ayniqsa moyil bo‘ladi.⁸ Ushbu texnologik xususiyat elektron tijorat subyektlarini an‘anaviy tadbirkorlik subyektlaridan ajratib turadi: konfidensial axborot bir zumda ko‘chirilishi, tarqatilishi yoki o‘g‘irlanishi mumkin. Shunga ko‘ra, raqamli muhitda maxfiy axborotni himoya qilish faqat huquqiy, balki texnologik choralar bilan birgalikda amalga oshirilgandagina samarali bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi «Tijorat siri to‘g‘risida»gi Qonunga muvofiq, tijorat sirini tashkil etuvchi axborot qatoriga quyidagilar kirishi mumkin: mijozlar va hamkorlar bazasi; narxlash strategiyasi; dasturiy ta‘minot manba kodlari va algoritmlar; marketing rejalar; moliyaviy hisobotlar va prognozlar; logistika ma‘lumotlari; kriptografik kalitlar va xavfsizlik protokollari.⁹ Ushbu ma‘lumotlar elektron tijorat platformalari raqobatbardoshligining asosini tashkil etgani sababli ularning oshkor bo‘lishi bevosita iqtisodiy zararga olib keladi.

Tijorat sirini huquqiy tartibga solish bir nechta tarmoq tomonidan parallel amalga oshiriladi: fuqarolik, mehnat, axborot, intellektual mulk, raqobat va jinoyat huquqi har biri o‘z nuqtai nazaridan bu institutni tartibga soladi. Elektron tijorat sharoitida ushbu tarmoqlarning o‘zaro ta‘siri chuqurlashadi, chunki raqamli axborot bir vaqtning o‘zida bir nechta tarmoq normalarining tatbiq etilishini taqozo qiladi.

Fuqarolik-huquqiy tartibga solish. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 98-moddasi tijorat sirini himoya qiluvchi fuqarolik huquqi obyektini sifatida belgilaydi. 1095-moddaga ko‘ra, oshkor bo‘lmagan axborotga ega shaxs uni noqonuniy foydalanishdan himoya qilishni talab qilish huquqiga ega. 1096-modda esa noqonuniy foydalanish uchun zararni qoplash majburiyatini mustahkamlaydi. Fuqarolik huquqi tijorat sirini huquqiy muomala obyektini sifatida tartibga solib, litsenziya shartnomalari va maxfiylik shartnomalari (NDA) orqali uning muomalasini belgilaydi.¹⁰

⁵Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). WTO, 1994. Article 39(2)(a)–(c). – https://www.wto.org/english/tratop_e/trips_e/t_agm3b_e.htm

⁶Directive (EU) 2016/943 of the European Parliament and of the Council of 8 June 2016 on the protection of undisclosed know-how and business information (trade secrets). Article 2(1); Recital 14. – <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2016/943/oj>

⁷Defend Trade Secrets Act of 2016 (DTSA). 18 U.S.C. § 1839(3). – <https://www.congress.gov/114/plaws/publ153/PLAW-114publ153.pdf>

⁸Ruzinazarov Sh.N. «Elektron tijorat huquqi» darslik.– Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026. – 427-bet.

⁹O‘zbekiston Respublikasining «Tijorat siri to‘g‘risida»gi Qonuni. O‘RQ-374-son.

¹⁰O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi. – <https://lex.uz/acts/111181>.

Date: 5th May-2026



Mehnat-huquqiy tartibga solish. O'zbekiston Respublikasi «Tijorat siri to'g'risida»gi Qonunning 10-moddasi tijorat siri rejimini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni belgilaydi, 11-modda esa xodimga tijorat sirini saqlash, oshkor etmaslik va ish tugagach barcha tegishli materiallarni topshirish yoki yo'q qilish majburiyatini yuklaydi.¹¹ Elektron tijorat subyektlarida IT mutaxassislari, dasturchilar va marketing bo'limi vakillari eng muhim konfidensial axborotdan xabardor shaxslar hisoblanadi, shu sababli ularning mehnat shartnomasiga maxfiylik bandlari kiritilishi alohida ahamiyat kasb etadi.¹²

Axborot-huquqiy tartibga solish. «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonunning 20-moddasi himoyalangan axborot turlarini, shu jumladan tijorat sirlarini belgilaydi.¹³ 2022-yil 29-sentabrdagi yangi tahrir qilingan «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonun elektron tijorat subyektlarining axborotga oid majburiyatlarini yanada aniqlashtirdi.¹⁴

Intellectual mulk huquqi bilan munosabati. Tijorat siri va intellektual mulk obyektlari o'rtasida muhim tafovut mavjud: patentdan farqli ravishda tijorat siri ro'yxatdan o'tishni talab qilmaydi, ammo maxfiylik saqlanib qolgunga qadar himoya qilinadi. Elektron tijorat subyektlari uchun dasturiy ta'minot manba kodlari va algoritmlar bir vaqtning o'zida tijorat siri va mualliflik huquqi obyekti sifatida ikki tomonlama himoyadan foydalanishi mumkin. Yevropa Ittifoqi Direktivasi 2016/943 ushbu ikki himoya shaklini o'zaro to'ldiruvchi mexanizmlar sifatida belgilaydi.¹⁵

Raqobat huquqi aspekti. O'zbekiston Respublikasi «Raqobat to'g'risida»gi Qonunning 21-moddasi insofsiz raqobat shakllarini belgilaydi, shular jumlasiga raqobatchining tijorat sirini noqonuniy o'zlashtirish yoki oshkor qilish kiradi.¹⁶ TRIPS bitimining 39(1)-moddasi ham tijorat sirini insofsiz raqobatga qarshi himoya doirasida mustahkamlaydi.¹⁷

Jinoiy-huquqiy tartibga solish. Jinoyat kodeksining 191-moddasi qonunga xilof ravishda axborot to'plash, uni oshkor qilish yoki undan foydalanganlik uchun jinoiy javobgarlikni nazarda tutadi.¹⁸ AQSh DTSAning 1832-moddasiga ko'ra esa tijorat sirini o'g'irlash uchun 10 yilga qadar qamoq jazosi va 5 mln dollargacha jarima belgilangan.¹⁹ O'zbekiston qonunchiligida elektron tijorat subyektlari tijorat sirini kiberxurujlar orqali o'g'irlash va raqamli vositalar yordamida oshkor etish holatlariga nisbatan alohida jinoiy javobgarlik mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan.

¹¹O'zbekiston Respublikasining «Tijorat siri to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-374-son – <https://lex.uz/acts/-2460801>

¹²Ruzinazarov Sh.N. «Elektron tijorat huquqi» darslik.– Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026 – 435-bet.

¹³O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr, O'RQ-560-II-son. 21-modda (himoalangan axborot turlari). – <https://lex.uz/acts/84603>

¹⁴O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonuni. 2015-yil 14-may, O'RQ-388-son; 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son bilan yangi tahrir qilingan – <https://lex.uz/acts/2700344>

¹⁵Directive (EU) 2016/943. Article 4 (tijorat sirini noqonuniy ravishda qo'lga kiritish, foydalanish va oshkor qilish).

¹⁶O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonuni. 2023-yil 3-iyul, O'RQ-850-son. 21-modda (insofsiz raqobatning taqiqlangan shakllari). – <https://lex.uz/acts/2034890>

¹⁷TRIPS Agreement. Article 39(1): oshkor bo'lmagan ma'lumotlar Paris konventsiyasining 10bis-moddasi doirasida insofsiz raqobatga qarshi himoya mexanizmi sifatida belgilangan.

¹⁸O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr – <https://lex.uz/acts/111457>

¹⁹Defend Trade Secrets Act of 2016. 18 U.S.C. § 1832(b)(3)(A)(i).

Date: 5th May-2026

Amalga oshirilgan tahlil natijasida quyidagi uch muammo aniqlanib, ularni bartaraf etish uchun amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.

Birinchi, O‘zbekiston Respublikasi «Tijorat siri to‘g‘risida»gi Qonun raqamli muhit xususiyatlarini – algoritmlar, sun‘iy intellekt modellari, ma‘lumotlar to‘plamlari kabi obyektlarning huquqiy maqomini – hisobga olmaydi. Yevropa Ittifoqi Direktivasi 2016/943 bu obyektlarni «texnologik axborot» (technological information) sifatida tijorat sirining alohida turi deb belgilaydi. Taklif: Qonunning 3-moddasiga «raqamli obyektlar» ta‘rifini qo‘shish, jumladan quyidagi mazmundagi qoida kiritish: «Algoritmlar, dasturiy ta‘minotning manba kodi, sun‘iy intellekt modellari va katta hajmdagi ma‘lumotlar to‘plamlari tijorat siri obyektlari sifatida tan olinadi».

Ikkinchi, O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1095–1096-moddalari va O‘zbekiston Respublikasi «Tijorat siri to‘g‘risida»gi Qonun xodimlar tomonidan tijorat siri rejimini buzganlik uchun javobgarlikni bir-biridan mustaqil tartibga soladi, bu esa sud amaliyotida yagona yondashuvning yo‘qligiga olib kelmoqda. «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi doirasida²⁰ Oliy Sudi Plenumining tijorat siriga oid nizolarni ko‘rib chiqish amaliyotini umumlashtiruvchi maxsus qaror qabul qilishi tavsiya etiladi. Bunday qaror elektron tijorat subyektlari tijorat sirini buzganlik uchun fuqarolik-huquqiy va mehnat-huquqiy javobgarlik mezonlarini birlashtirgan holda belgilab beradi.

Uchinchi, 2024-yil 26-dekabrda Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida Elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori elektron tijorat sohasini rivojlantirish va statistikasi tartibga solishga qaratilgan bo‘lib,²¹ unda tijorat sirini raqamli tizimlar orqali muhofaza qilishga oid minimal texnik talablar (shifrlash standarti, kirish nazorati tizimi, xavfsizlik auditi) belgilanmagan. Taklif: ushbu qarorga qo‘shimcha ilova sifatida «Elektron tijorat subyektlari uchun konfidensial axborotni texnik muhofaza qilish minimal talablari» ro‘yxatini ishlab chiqish va tasdiqlash.

Elektron tijorat subyektlarining tijorat siri – maxfiylik, tijorat qiymati va himoya choralari kabi uchta klassik belgi bilan tavsiflanuvchi, fuqarolik, mehnat, axborot, intellektual mulk, raqobat va jinoyat huquqi doirasida parallel tartibga solinadigan ko‘p tarmoqli huquqiy kategoriya. Raqamli muhitda ushbu belgilarga qo‘shimcha texnologik xususiyat qo‘shiladi – kiberxurujlar va ma‘lumotlar sintezi xavfi, bu esa himoya mexanizmlarida huquqiy va texnologik choralarning uyg‘unligini taqozo qiladi. O‘zbekiston qonunchiligi asosiy normativ bazani yaratgan, biroq elektron tijorat muhitining o‘ziga xosligini hisobga oluvchi maxsus normalar, tarmoqlararo muvofiqlik va xalqaro standartlarga (TRIPS, EU Direktivi 2016/943, DTSA 2016) uyg‘unlashtirish jihatlarida takomillashtirish zaruriyati saqlanmoqda. Taqdim etilgan uch yo‘nalishdagi taklif-tavsiyalar ushbu bo‘shliqlarni bartaraf etishning amaliy yo‘llarini belgilaydi.

²⁰O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi. – <https://lex.uz/acts/6126951>

²¹O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrda 885-son qarori «O‘zbekiston Respublikasida elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida». – <https://lex.uz/docs/-7282643>



Date: 5th May-2026

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi – <https://lex.uz/acts/111181>
2. O'zbekiston Respublikasining «Tijorat siri to'g'risida»gi Qonuni. 2014-yil 11-sentabr, O'RQ-374-son – <https://lex.uz/acts/-2460801>
3. Ruzinazarov Sh.N. «Elektron tijorat huquqi» darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026 – 424-bet
4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi – <https://lex.uz/acts/111181>
5. Agreement on Trade-Related Aspects of Intellectual Property Rights (TRIPS). WTO, 1994. Article 39(2)(a)–(c). – https://www.wto.org/english/tratop_e/trips_e/t_agm3b_e.htm
6. Directive (EU) 2016/943 of the European Parliament and of the Council of 8 June 2016 on the protection of undisclosed know-how and business information (trade secrets). Article 2(1); Recital 14. – <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2016/943/oj>
7. Defend Trade Secrets Act of 2016 (DTSA). 18 U.S.C. § 1839(3). – <https://www.congress.gov/114/plaws/publ153/PLAW-114publ153.pdf>
8. Ruzinazarov Sh.N. «Elektron tijorat huquqi» darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026. – 427-bet.
9. O'zbekiston Respublikasining «Tijorat siri to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-374-son – <https://lex.uz/acts/-2460801>
10. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi – <https://lex.uz/acts/111181>.
11. O'zbekiston Respublikasining «Tijorat siri to'g'risida»gi Qonuni. O'RQ-374-son – <https://lex.uz/acts/-2460801>
12. Ruzinazarov Sh.N. «Elektron tijorat huquqi» darslik. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2026. – 435-bet.
13. O'zbekiston Respublikasining «Axborotlashtirish to'g'risida»gi Qonuni. 2003-yil 11-dekabr, O'RQ-560-II-son. 21-modda (himoyalangan axborot turlari). – <https://lex.uz/acts/84603>
14. O'zbekiston Respublikasining «Elektron tijorat to'g'risida»gi Qonuni. 2015-yil 14-may, O'RQ-388-son; 2022-yil 29-sentabrdagi O'RQ-792-son bilan yangi tahrir qilingan – <https://lex.uz/acts/2700344>
15. Directive (EU) 2016/943. Article 4 (tijorat sirini noqonuniy ravishda qo'lga kiritish, foydalanish va oshkor qilish).14. Almeling D.S. et al. A statistical analysis of trade secret litigation in federal courts // Gonzaga Law Review. – 2010. – Vol. 45. – P. 291–334.
16. O'zbekiston Respublikasining «Raqobat to'g'risida»gi Qonuni. 2023-yil 3-iyul, O'RQ-850-son – <https://lex.uz/acts/2034890>
17. TRIPS Agreement. Article 39(1): oshkor bo'lmagan ma'lumotlar Paris konvensiyasining 10bis-moddasi doirasida insofsiz raqobatga qarshi himoya mexanizmi sifatida belgilangan.
18. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. 1994-yil 22-sentabr. 191-modda - <https://lex.uz/acts/111457>
19. Defend Trade Secrets Act of 2016. 18 U.S.C. § 1832(b)(3)(A)(i).



Date: 5thMay-2026

20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son Farmoni bilan tasdiqlangan «Raqamli O‘zbekiston – 2030» strategiyasi. –

<https://lex.uz/acts/6126951>

21. Vazirlar Mahkamasining «O‘zbekiston Respublikasida Elektron tijorat sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori 2024-yil 26-dekabr VMQ-885-son.

